



“TISU IJTIMOIIY FANLARI VA INNOVATSION PEDAGOGIKA”

ILMIY JURNALI

“TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika” jurnali – Respublikadagi ijtimoiy fanlar, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va tarix yo’nalishlarida izlanish olib borayotgan olimlar, doktorantlar va tadqiqotchilar, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari, ilmiy izlanuvchilar hamda magistrantlar, maktab va texnikumlarda faoliyat yuritayotgan o’qituvchilar, metodistlar va amaliyotchi pedagoglar, ta’lim sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qiziquvchi mutaxassislarning ilmiy salohiyatini namoyon etuvchi maqolalari e’lon qilinadi.



Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU TIBBIYOT INNOVATSIYASI ILMIY
JURNALI**

Bosh muharrir:
Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:
Allamuratov Shuxrat Ashurovich

Dizayner:
Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal har chorakda bir marotaba
chop etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi
№ 066379- raqamli guvohnomasi
bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal "PRINTWELL" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri
Muqimiy ko'chasi, 170/14

Bosishga ruxsat etildi:
27.11. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8
"Times New Roman" garnitiruasi.
Ofset bosma.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i: 11.
Adadi 10 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № 1.

Jurnalning elektron shakli bilan
<https://scientific.tues.uz>
web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:
Surxondaryo viloyati,
Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Bosh muharrir, Qabulov Eshbolta Atamuratovich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. eshbolta_qabulov@tues.uz

Bosh muharrir o'rinbosari – Salohiddinova Navro'za -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. navruza_salohiddinova@tues.uz

Tarix fanlari muharriri Tursunov Nurillo Narzullayevich -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix kafedrası professori v.b, tarix fanlari doktori,
Termiz, O'zbekiston. nurillo_tursunov@tues.uz

Ijtimoiy fanlar muharriri, Tursunov Muxiddin Boltayevich –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, sotsiologiya fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. muxiddin_tursunov@tues.uz

Jismoniy madaniyat fanlari muharriri – Begimqulov Oltiboy
Jo'rayevich - Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Jismoniy madaniyat kafedrası professori,
Termiz, O'zbekiston. oltiboy_begimqulov@tues.uz

Pedagogika fanlari muharriri – Narboshova Maqsuda Achilovna -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,
Termiz, O'zbekiston. maqsuda_narboshova@tues.uz

Rus tili va adabiyoti muharriri – Sattarova Elena Anatolevna –
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. elena_sattarova@tues.uz

Ingliz filologiyasi muharriri – Urolova Oysuluv Poyon qizi -
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari
falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston. oysuluv_urolova@tues.uz

MUNDARIJA

G. E. TURAYEVA

Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy tarbiyalashda o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.....3

G.T. JUMAYEVA

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari.....6

O.Ch.XOLOV

Yosh avlodni tarbiyalashda aksiologiyaning ahamiyati.....10

N.M. SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'lim sharoitida xorijiy tajriba va steam ta'limi.....14

B.X. ABRAYEV, I.N. XAYRULLAYEV

Matritsalar va odam anatomiyasida fanlararo integratsiya va funksional o'xshashliklar haqida tizimli yondashuv.....17

M.Y.MADIEVA

Translation strategies and linguistic adaptation of English brand names in Russian and Uzbek contexts.....22

S.Q. ESHBOYEVA

4K yondashuv samarali ta'lim kafolati.....26

N.N. SHODIYEVA

Erta nikoh qurishning oila mustahkamligiga ta'siri.....30

K.Sh.OLTIBOYEVA

Shaxs intellektual rivojlanishi - pedagogik muammo sifatida.....34

U.A. TASHBAYEVA

Talabalarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali kommunikativ tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari.....37

M.Y.MADIEVA

Brend nomlarining medialingvistik tahlili: o'zbek tilidagi milliy leksik birliklar asosida....41

R.D. NORQOBILOVA

Pedagogik konfliktlarda gender omilining roli.....47

G'.A. MAMARAJABOV

Surxon vohasi amaliy san'atning rivojlanishida hunarmandlar faoliyati.....50

F.A. ABDURAZZOQOV

Mamlakatda maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlashning ta'sirchan va samarali mexanizmlari.....54

A.Ch. QOSIMOV

Surxon vohasida an'anaviy qo'ychilik va ularning vohaga xos xususiyatlari.....58

M.X. FAYZULLAYEVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....62

S.A. JABBOROVA

Tarixiy yozma manbalar va ilmiy adabiyotlar qimmatli manba sifatida.....67

F. YORMATOV

Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashning ustivor yo'nalishlari70

R. R. KHAMRAEVA

Linguistic Creativity in Science Fiction Translation: from Asimov's Robots to Modern AI Narratives.....76

I.H. JUMAYEV

"Qutadg'u bilig" dostonida insoniy nuqsonlarning badiiy ifodasi.....80

N.A. UMAROVA

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentli shakillantirish.....84

I.B. QARSHIYEVA

Talabalarga jadidchilar asarlaridagi ma'rifiy qadriyatlarini o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.....89



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Mamarajabov G'ayrat Abdulxakimovich
E-mail: gayrat_mamarajabov@tues.uz

SURXON VOHASI AMALIY SAN'ATNING RIVOJLANISHIDA HUNARMANGLAR FAOLIYATI

ANNOTATSIIYA

Ushbu maqolada Surxon vohasining amaliy san'ati, xususan hunarmandchilik an'analari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Hunarmandchilik faoliyatining voha aholisi madaniy hayotidagi o'рни, etnografik xususiyatlari va bugungi holati chuqur ilmiy yondashuv bilan yoritiladi. Kalit so'zlar: Surxon vohasi, amaliy san'at, hunarmandchilik, tarix, etnografiya, xalq hunari, madaniy meros.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется прикладное искусство Сурхандарьинской области, в частности, традиции ремесел, на основе исторических источников. Освещается роль ремесленной деятельности в культурной жизни местного населения, её этнографические особенности и современное состояние с использованием глубоко научного подхода. Ключевые слова: Сурхандарьинская область, прикладное искусство, ремесло, история, этнография, народное творчество, культурное наследие.

ABSTRACT

This article analyzes the applied arts of the Surkhan oasis, particularly the traditions of craftsmanship, based on historical sources. The place of handicraft activity in the cultural life of the oasis population, its ethnographic features, and the current state are highlighted with a deep scientific approach.

Keywords: Surkhan Oasis, applied arts, crafts, history, ethnography, folk crafts, cultural heritage.

Kirish va dolzarbligi. Surxondaryo vohasi o'zining ko'p asrlik tarixi, madaniyati va etnografik boyligi bilan ajralib turadi. Bu hududda hunarmandchilik - xalqning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirish bilan birga, uning badiiy zehni, dunyoqarashi va estetik tafakkurini ifoda etuvchi muhim amaliy san'at turlaridan biri sifatida shakllandi. Amaliy-badiiy san'at esa o'z navbatida nafaqat hayot uchun zarur buyumlarni tayyorlash, balki ular orqali xalq ijodining badiiy ifoda vositasi sifatida xizmat qildi.

Surxon vohasida hunarmandchilikning shakllanishi ko'p jihatdan tabiiy-iqlimiy sharoit, tarixiy-madaniy muhit va xalqning an'anaviy hayot tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Ayniqsa, vohadagi katta shaharlar - Termiz, Denov, Sherobod va Jarqo'rg'on kabi markazlar hunarmandchilikning taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Bu shaharlar savdo yo'llari kesishgan nuqtada joylashgani tufayli, mahalliy hunarmandlar nafaqat o'z buyumlarini ichki bozorda, balki Markaziy Osiyoning boshqa hududlariga ham tarqatish imkoniga ega

bo'lganlar.

Surxon vohasi O'zbekistonning janubida joylashgan, o'zining qadimiy tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari va boy madaniy merosi bilan ajralib turuvchi hududlardan biridir. Bu vohada qadimdan turli hunar turlari bilan shug'ullangan aholi yashab kelgan. Aholining amaliy san'atga, xususan kulolchilik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, to'qimachilik va kashtachilikka bo'lgan e'tibori ularning madaniy dunyoqarashi, estetik qarashlari va ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Metodlar va o'rganilish darajasi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmatini bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom-ashyoning go'zalligi va

nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'at da estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir.

Amaliy bezak san'atining eng rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichokchilik, bo'yrachilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zik, gilamduzlik, kigizchilik, savatchilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu soxalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari butun jahonga dong'i ketgan[1].

Vohada shakllangan hunarmandchilik turlari orasida quyidagilar alohida ajralib turadi:

Surxon vohasidagi kulolchilik buyumlari nafaqat foydali, balki estetik jihatdan juda boy bo'lib, ularning badiiy bezaklarida an'anaviy o'simlik va geometrik naqshlar uchraydi. Termiz va Sherobod kulollari tarixiy manbalarda alohida tilga olinadi.

Zargarlik san'atida mahalliy ustalar oltin, kumush, mis va bronza materiallaridan bezak buyumlar — bilanzuk, ziynatlar, oshxona buyumlari yasagan. Bu buyumlarda xalq naqqoshligi va badiiy ta'bining yuksak darajasi ko'zga tashlanadi.

To'qimachilik hunari mahalliy ayollar orasida rivojlangan bo'lib, paxtadan yoki ipakdan to'qilgan matolarga tikilgan milliy naqshlar har bir hududning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Darvozalar, ustunlar va boshqa uy jihozlari o'yma san'ati orqali bezatilgan. Ohangarlik esa qurollar, xo'jalik asboblari va qurilish vositalarini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan.

Amaliy-badiiy hunarmandchilik orqali xalq o'zining tarixiy xotirasi, estetik tushunchalari, urf-odat va an'alarini asrab keldi. Bu jarayonda hunarmand ustalarning ijodiy mahorati va oilaviy meros sifatida avloddan-avlodga o'tishi muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Har bir hunar egasi o'z ustozidan olgan bilim va ko'nikmalarni nafaqat amalda, balki mafkuraviy jihatdan ham boyitgan.

Surxon vohasida hunarmandchilikning shakllanishi va rivojlanishi xalqning maishiy hayotiga bevosita ta'sir etgan. Shu bois, hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat iste'mol buyumi sifatida, balki milliy merosning muhim qismi, madaniy belgi sifatida qaraladi. Hozirgi kunda ham Surxon hunarmandchiligi o'z qadriyatlarini saqlagan holda, zamonaviy talablar bilan uyg'un rivojlanmoqda. Bu esa

amaliy-badiiy san'atning bardavomligini va milliy o'zlikni asrab-avaylashdagi o'rnini ko'rsatadi[2].

Zardo'zlik ham hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri bo'lib, bunda naqshlar matoga zar iplar bilan tikiladi. Hozirgi paytda zardo'zi buyumlar asosan sahna kiyimlari hisoblanadi, kattalar va bolalar bayramlarda kiyishadi va sovg'a uchun tikiladi. "Zardo'zlik" so'zi forscha "zar – tilla", "do'zi – tikmoq", yani zar iplar bilan gul, kashta tikmoq degan manoni anglatadi. Kandakorlik sanati metallarga badiiy ishlov berishning qiziqarli, uziga xos tarmog'i hisoblanadi. Misdan ishlangan buyumlar turmushda san'at namunalari sifatida keng foylanilmoqda[3].

O'zbekiston xalq amaliy bezak sanati ichida suyak o'ymakorligi ham sanatning boshqa turlari kabi tez suratlar bilan rivojlanmoqda. Suyak o'ymakorligi O'zbekistonda amaliy sanatning eng yosh turlaridan biridir. Suyak o'ymakorligi Hindiston, Yoqutiston, Afrika, Xitoy, umuman Sharq mamlakatlarida yuksak darajada rivojlangan. Suyak o'ymakorligi juda qadimiy sanat, buni har xil arxeologik qazishmalar topilmalari tasdiqlaydi (masalan, suyakni kesib, yonib naqsh hamda tasvir tushirilgan buyumlar va haykalchalar). O'rta Osiyoda suyak o'ymakorligi asosan pichoqchilikda qo'llanilgan. Bular oddiy suyaklardan (qoramolning, echkinging shoxlaridan) ishlangan. O'zbekistonga suyak o'ymakorligi 1959-yillarda kirib keldi. Suyak o'ymakorligida parma, arracha, egov hamda o'ziga xos mukammal mexanik asboblari ishlatiladi.[4, 112] Suyak o'ymakorligi texnologiyasi quyidagilardan iborat. Zarur materialga moc keladigan suyak turi va bo'lagi tanlanadi. Suyakning ortiqcha bo'laklari arralab olib tashlanadi. G'adir-budir joylari egovda tekislanadi. Suyakka qalam bilan gul chiziladi va o'sha chiziq bo'yicha naqsh ishlanadi hamda yo'ng'ir tosh bilan jilo beriladi. Ish so'nggida tayyor bulgan buyumni bo'r va spirt bilan yaxshilab artib chiqiladi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda viloyatimizda hunarmandlarga yaratilgan sharoitlar xususida so'z borganda albatta viloyatimizdagi Hunarmandlar uyushmasi faoliyati ko'z oldimizga keladi. Bugungi kunda ushbu uyushma faoliyatida ko'plab islohatlar amalga oshirib borilmoqda. Ya'ni ushbu uyushma ma'lumotlariga bugungi kunda hunarmandchilikning 34 ta turi bo'yicha faoliyatlar tashkil etilgan bo'lib ularda amalga



oshirilayotgan ishlar ham ancha salmoqli bo'lib hisoblanadi. Uyushmaning barcha tumanlardagi bo'limlari kabi Jarqo'rg'on tuman bo'limi faoliyati ham muhim ishlar amalga oshirib kelingan. Tuman bo'limida bugungi kunda 337 ta hunarmand uyushmaga a'zo bo'lgan. Hunarmandlar qo'lida kasb-hunar o'rganyotgan shogirdlar soni 624 nafarni tashkil etib kelmoqda [5, 3]. Jumladan, tuman uyushmasi tomonidan izchil islohatlar davomida hunarmandchilikning "mebel ishlab chiqarish", "milliy liboslar tayyorlash", "metallardan buyumlar tayyorlash", "yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchiligi maxsulotlari tayyorlash" yo'nalishlari faoliyatlari yanada jadal tarzda rivojlantirib borilmoqda. Shu o'rinda hunarmandlar faoliyatini tashkil etish, ularga imtiyozli ravishda kreditlar ajratish hamda ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida ham muhim ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Hunarmandchilikni rivojlantirishda bir qator hunarmand xizmatlari beqiyos gilamchilik, janda, olachani qayta tiklagan hunarmand Rahimberdiyeva Xadicha, tuya junidan 25 metrli gilam to'qigan hunarmand Azizova Maftuna, milliy kashtachilik yo'nalishi bo'yicha 2019-yil Qo'qonda o'tkazilgan hunarmandchilik festivalida sovrinni qo'lga kiritgan hunarmand Jo'rayeva Nilifar, milliy libos sohasi bo'yicha faoliyat olib borayotgan hunarmand 25 metrga 5 metrlik qurog'i bilan hunarmandchilikning milliy katalogiga kirgan Sabirova Nazokat Surxondaryoda yagona bo'lgan savat to'quvchi hunarmand usta Boymurod kabi hunarmandlardir.

Surxondaryoda keng tarqalgan milliy hunarmandchilik turlaridan biri kulolchilik bo'lib, kulolchilik sohasini taraqqiy etishda 7 sulola davom etib kelayotgan Umar kulol sulolasining hizmati katta. Umar kulol asli Qashqadaryolik bo'lib Surxondaryoga ko'chib kelgan. Milliy kashtachilik sohasi Boysunda keng tarqalgan hunarmandchilik sohasi bo'lib 2019-yil Surxondaryoda bo'lib o'tadigan I Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga bag'ishlab boysunlik hunarmandlar tomonidan Nilifar Jo'rayeva boshchiligida dunyoda eng katta so'zana tikildi. 20 nafar qo'li gul chevarlar tomonidan nozik did, yuksak mahorat bilan yaratilgan ushbu san'at namunasining uzunligi 25, eni esa 6 metrni, og'irligi 60 kilogrammni tashkil etadi. Mohir kashtado'zlar tomonidan mehr bilan tikilgan ushbu so'zana olti oy davomida yaratildi. Tinimsiz mehnat mahsuli hisoblangan

kashtachilik namunasini yaratish uchun vohani aks ettiruvchi turli yorqin rangdagi 16 kilogramm ipaklardan foydalanildi[6].

Surxon milliy urf-odat va qadriyatlari va qadimiy ananalarini o'zida mujassam etib kelayotgan so'zanalar xalqimizning boy madaniy merosi hisoblanadi. Xalq amaliy-bezak san'ati turlaridan biri hisoblangan kashtalik yo'nalishini saqlab qolish, kelajak avlodga yetkazish barchaning birdek vazifasi bo'lishi zarur.

Sherobod tumanining "Taroqli" mahallasida ham gilamchilik sexi tashkil etildi. Mazkur sexda 35 nafar xotin-qizlar ish bilan taminlandi hamda gilamchilik o'quv kursi ham tashkil etildi. Sexda ipak, paxta va jundan turli gilamlar to'qilib, ular Pokiston, Eron va Turkiya davlatlari va mahalliy bozorlarda sotildi[7].

So'nggi yillarda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish borasida muhim ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Kichik ishlab chiqarish sanoati, jumladan, hunarmandchilik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining teng rivojlanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Dunyodagi sanoat mahsulotlarining 90-95 foizi 100 kishidan kam bo'lmagan kichik ustaxonalarda ishlab chiqariladi. Misol uchun, iqtisodiy taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisida joylashgan Yaponiya, sanoatning 84% ni kichik va o'rta sanoat sifatida ko'rib chiqdi. Hindiston va Xitoy singari mamlakatlarda milliy hunarmandchilik sifati va miqdori bo'yicha mexanizatsiyalashgan mahsulotlarga ega bo'lib, xorijiy daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotni mustahkamlash uchun milliy hunarmandchilik rivojlantirishga e'tibor qaratmoqdalar.

O'zbek xalq amaliy san'ati rivojida "Tashabbus", "Yosh ijodkorlar" ko'rgazmasi, "Usta-shogird" ko'rgazmasi, "Qo'li guldur o'zbek ayolin", "Xalq iste'mol tovarlari ko'rgazma-savdosi", "Yosh kulollarning Respublika ko'rgazmasi", "Bazar-Art", "Asrlar sadosi" kabi anjumanlarning o'rnini katta bo'ldi[8].

Bugungi kunda asosiy masalalardan biri endilikda aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan e'tibori nioshish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda albatta hunarmandlar uyushmasi bilan aholi ommasining o'zaro xamkorligi va ularning o'zaro aloqalarini yanada mustahkamlash muhim masalalardan biri hisoblanadi[9]. Bu borada bozorlarda hunarmandlar mahsulotlarini erkin sotish, namoyish etish, bu borada reklama va e'lonlarni yanada keng tarqatish masalalariga

e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Shuningdek, eng faol ravishda faoliyat olib borayotgan usta-hunarmandlarni rag'batlantirish va ularning imkoniyatlarini yanada oshirish masalasi muhim ishlardan biri sanaladi.

Xulosa. Surxon vohasida hunarmandchilik an'alarining shakllanishi xalqning tabiiy muhiti, tarixiy tajribasi va madaniy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lib, amaliy-badiiy san'atning boy namunalarini yuzaga chiqargan. Hunarmandchilik mahalliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida milliy o'zlikni, xalq xotirasini va an'alarini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bu an'analar zamonaviy shakllarda yashab kelmoqda va turizm, dizayn hamda ta'lim sohalarida keng qo'llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'raqulov Q. O'zbekiston etnografiyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2018.
2. Berdiyev O. Surxondaryo vohasining qadimgi tarixiy yodgorliklari. Termiz, 2004.
3. Shoniyo'zov K. O'zbek xalqining etnogenezi. Toshkent: Fan, 1990.
4. Karimov R. O'zbekiston tarixida hunarmandchilik taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. – 112 b.
5. H.Tog'aymurodov. Hunarmandlar qaydasiz. Surxon tonggi. 2021-yil 3-mart. 17-son. 3-bet.
6. Norqobilov B. Hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati. Toshkent: Ma'naviyat, 2012.
7. Surxondaryo viloyati arxeologik atlaslari. Toshkent: Fan, 2020.
8. Xalq amaliy san'ati bo'yicha xalqaro simpozium materiallari. Toshkent, 2021.
9. "Hunarmand" uyushmasi rasmiy hisobotlari. – Toshkent, 1998-2020 yillar.